



**15-16 APREL
2022**

**TOSHKENT
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI

**“TADQIQOT.UZ”
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH
ISTIQBOLLARI**

**II
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

TO‘PLAMI

Toshkent - 2023

Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir kengashi:

g.f.d., professor Hikmatov F.H.
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

Kengash a'zolari:

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.
PhD, dotsent Prenov Sh.M.
PhD, dotsent Raxmonov D.N.
PhD, dotsent Raxmonov K.R.
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

Mas'ul muharrir:

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

TERMIZ SHAHRINING TABIIY GEOGRAFIK O‘RNI IQTISODIY- IJTIMOIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Esanov Nazar Amanturdiyevich

o‘qituvchi

Termiz davlat universiteti

e-mail: esanovn@mail.ru

Fayzullayev Azizbek Hamidbek o‘g‘li

talaba

Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Termiz shahrining paydo bo‘lishi, iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati va geografik o‘rni, shaharning respublika iqtisodiyotida tutgan o‘rni, chegaralari, maydoni, shahar atrofida joylashgan geografik obyektlar va shaharning kelajak istiqbollari haqida fikrlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, shaharning respublikamiz va qo‘shni davlatlarning yirik shaharlari bilan bo‘lgan masofasi hamda iqlim o‘zgarishlari tahlil qilingan. Termiz shahrining iqtisodiy va turizm imkoniyatlari, shaharning qo‘shni davlatlar bilan olib boriladigan savdo aloqalari va jahon bozoriga chiqish imkonini beruvchi yo‘l qurilishi istiqbollari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Amudaryo, Pattakesar, Ko‘hitang, Katta qum cho‘li, arablar, mo‘g‘illar, Amir Temur, Biyo qishlog‘i, temiryo‘llar, avtomobil yo‘llari, madaniy obyektlar, Toshg‘uzor- Boysun-Qumqo‘rg‘on temiryo‘li, Afg‘on shamoli.

NATURAL GEOGRAPHICAL PLACE OF TERMIZ IS A GUARANTEE OF ECONOMIC AND SOCIAL DEVELOPMENT

Esanov Nazar

Fayzullayev Azizbek

Abstract: This article discusses the emergence of the city of Termez, its socio-economic significance and geographical location, the city's role in the economy of the Republic, its borders, area, geographical features around the city and the future of the city. The distance of the city to the major cities of the republic and neighboring countries, as well as climate change are also analyzed. The economic and tourism potential of Termez, the city's trade relations with neighboring countries and the prospects of road construction to enter the world market were discussed.

Keywords: Amudarya, Pattakesar, Kohitang, Big Sand Desert, Arabs, Mongols, Amir Temur, Biya village, railways, highways, cultural facilities, Tashg uzar - Boysun - Kumkurgan railway, Afghan wind.

Termiz shahri O‘zbekiston Respublikasining eng janubida, Amudaryoning o‘ng sohilida, Surxondaryoning Amudaryoga quyilish joyida joylashgan, Surxondaryo viloyatining ma‘muriy markazi va eng yirik shahri. U nafaqat O‘zbekistonda balki

O‘rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lib, yoshi 2500 yildan oshadi. 1929 yil shahar maqomini olgan [7, 95-b].

Mustaqillik yillarida shahar ahlining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarda erishgan muvaffaqiyatlari, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, millatlararo do‘stlik va hamjihatlik munosabatlarini rivojlantirishga qo‘shgan munosib hissasi, xalqimizning tarixiy va ma‘naviy merosini asrab-avaylash, yoshlarimizni ulug‘ ajdodlarimizga xos ezgu qadriyatlar, mardlik va jasorat, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi katta xizmatlari uchun hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 23 - yilligi munosabati bilan 2014 yil 22 avgustda Termiz shahri “Amir Temur” ordeni bilan mukofotlandi [5, 2-b].

Termiz va uning atrofida bir qator qadimiy arxeologik va me‘moriy yodgorliklari jumladan, qadimiy zardushtiylik, nasroniylik va buddaviylik qal‘a va manzilgohlari xarobalari va islom me‘morchiligi yodgorliklari saqlanib qolgan.

Zamonaviy shahardan bir necha kilometr sharqda joylashgan Ko‘hna Termiz shahriga asos solingan sana bugungi kunga qadar noma‘lum. 2002 yil aprel oyida Termiz shahrining 2500 yilligi nishonlandi [6, 4-b].

Termiz Markaziy Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biridir. Miloddan avvalgi VI asrda. Ahamoniylar davlati tarkibiga kirdi (o‘sha paytda u qadimiy shahar sifatida tasvirlangan edi). IX—X asrlarda Termiz yirik shahar, savdo, hunarmandchilik, ilmiy-madaniy markaz bo‘lgan. O‘sha vaqtdagi shahar mudofaa inshootlarining uzunligi 10 kmni tashkil etgani holda qal‘a devorining 9 ta darvozasi bo‘lganligi haqida arxeologik ma‘lumotlar bor.

Arablardan keyin shahar Somoniylar tomonidan bosib olingan. Termiz yuz yil davomida XI-XII asrlarda G‘aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, 1206 yilda esa Xorazmshohlar qo‘liga o‘tdi. XI asrda sahroga aylangan Termiz shahrining g‘arbiy qismida al-Hakim at-Termiziy qabri ustida diniy majmua tashkil etilgan. Mo‘g‘illar bosqini davrida, 1220-yilda o‘n kunlik qamaldan so‘ng shahar mag‘lubiyatga uchradi va talon-taroj qilindi, aholisi esa Chingizxon qo‘shinlari tomonidan butunlay qirib tashlandi. Taqdir yoki bosqinchilarning xohishi bilan tirik qolgan shaharliklar keyinchalik vayron bo‘lgan shaharning janubi-sharqiy qismida aholi manzilgohini qaytadan barpo qila boshlashgan va u XIV – asrga kelibgina yangi shahar sifatida paydo bo‘ldi [2, 42-b].


Termiz yaqinidagi Biyo qishlog‘ida Amir Temur dastlab mashhur shayx Sayyid Baraka bilan uchrashib, unga bo‘lajak g‘alabalar alomati sifatida bayroq va nog‘ora sovg‘a qilganligi haqida aytiladi.

Termiz XIV-asrning ikkinchi yarmida katta siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib, Amir Temur va Temuriylar saltanati uchun muhim savdo yo‘li, daryo kechuvi sanalgan.

1893-yil yanvar oyida Pattakesar qishlog‘i yaqinidagi yerlar Buxoro amirligi tomonidan bu yerda chegara harbiy istehkomini qurish uchun Rossiya hukumatiga berilgan. Amudaryoda qal‘a, harbiy qarorgoh, daryo porti qurildi.

1928 yilda (allaqachon SSSR tarkibiga kirgan) Pattakesar qadimgi Termiz nomini oldi. 1929 yilda qishloq shahar maqomini oldi va 1967 yilgacha mamlakatning eng janubiy shahriga aylandi. Sobiq Sovet qo‘shinlarining Afg‘onistondagi urushi davrida Termiz muhim harbiy istehkom vazifasini o‘tagan. Shahar va shahar atrofida harbiy aerodrom, Amudaryo ustidan avtomobil va temir yo‘l ko‘prigi (“Do‘stlik ko‘prigi”) hozirgi Hayraton kabi keyinchalik shahar taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir qilgan ob‘ektlar qurib ishga tushirildi. Sobiq Sovet hokimiyati yillarida shaharda birqancha sanoat korxonalarini qurildi, pedagogika instituti va teatr ochildi. Pedagogika instituti negizida 1992 yilda Termiz davlat universiteti tashkil etildi.

O‘zbekistonni qo‘shni Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston va boshqa davlatlar bilan bog‘lovchi janubiy yo‘nalishdagi avtomobil va temir yo‘llar Termiz orqali o‘tishi shaharning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o‘rin egallaydi. 2009 - yil iyul oyida “Termiz hududiy temir yo‘l uzeli”ni yaratish to‘g‘risida qaror qabul qilindi, bu esa NATOning Afg‘onistonga rejalashtirilgan nojangovar yuk tranzitida asosiy nuqtalardan biriga aylanadi. Tranzit Rossiya, Qozog‘iston va O‘zbekiston hududlari orqali (Turkmanistonni aylanib o‘tib) 2009-yilda qurilgan Toshg‘uzar – Boysun - Qumqo‘rg‘on temiryo‘li orqali amalga oshiriladi.



1-rasm. Afg‘onistonning Markaziy Osiyo temir yo‘llariga bog‘lanishi (internet ma‘lumotlaridan foydalanildi)

Termiz — O‘zbekistonning janubiy chegara shahri bo‘lib u orqali O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi chegara o‘tadi. Shaharning Amudaryo bo'yidaligi va

qo'shni Afg'oniston bilan olib borilgan savdo aloqalari tufayli Termiz daryo porti shaharning xalqaro ahamiyatini yanada oshiradi.

Termizdan Afg'onistonning shimolidagi eng yirik shahri Mozori Sharifgacha bo'lgan masofa avtomobil yoki temir yo'lda taxminan 80 km, Qobulgacha esa - 425 km dan ortiq.

Avtomobil yoki temir yo'l orqali masofa qo'shni Tojikistonning poytaxti Dushanbe shahrigacha (shimoli - sharqda) - 235 kmni tashkil etgano holda mamlakatimizning ba'zi yirik shahrlari masalan, Qarshigacha (shimoli - g'arbda) - taxminan 250 km, Samarqandgacha (shimolda) - taxminan 330 km, Buxoro (shimolda - g'arbda) taxminan 430 km, Toshkentgacha (shimoli-sharqda) — 708 kmni tashkil etadi.

Termizning iqlimi kontinental, issiq va quruq, yozi jazirama issiq (O'zbekistondagi eng issiq shahar – eng yuqori temperatura 49,5⁰, 1914-yil 21-iyunda qayd etilgan), qishi iliq va qisqa. Yillik o'rtacha temperatura 16–18⁰. Yanvarning o'rtacha temperaturasi 2,8–3,6⁰, iyulniki 28–32⁰. Ba'zida, qishda sovuq – 20⁰ va undan ham past bo'ladi. Yillik yog'in 133 mm. Yog'ingarchilikning katta qismi noyabr va aprel oylariga to'g'ri keladi, yozgi yomg'ir juda kam uchraydi. Havoning o'rtacha yillik namligi 55% ni tashkil qiladi. Shamolning o'rtacha yillik tezligi 2,9 m/s [8, 25-b].

2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra shahar aholisi 189 614 kishini (shundan erkaklar soni – 93 585 kishi, ayollar soni – 96 029 kishi) tashkil etmoqda [4].

Aholining asosiy qismini o'zbeklar, shuningdek, tojiklar, ruslar, tatarlar, turkmanlar va boshqa millat vakillari yashaydi. Kichik afg'on diasporasi mavjud. Termiz daryo porti shaharning janubi-sharqiy qismida joylashgan. Shaharda “Termiz” xalqaro aeroporti mavjud bo'lib, u Toshkentga, O'zbekistonning boshqa yirik shaharlariga, shuningdek, Rossiyaning ayrim shaharlariga, jumladan, Moskva va Sankt-Peterburgga muntazam reyslar amalga oshiradi. Termiz – O'zbekistonning asosiy janubiy transport va darvozasi [1, 284-b]. Termiz shahridan 12 km sharqda Amudaryo bo'ylab O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi yagona chegara o'tkazish punkti bo'lgan piyodalar, avtomobil va temir yo'l transchegaraviy Hayraton ko'prigi (Do'stlik ko'prigi deb ham ataladi) o'tadi. Ko'priq orqali har kuni ikki yo'nalishda odamlar, yengil va yuk mashinalari qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Shahar O'zbekistonning janubiy yo'nalishdagi asosiy temir yo'l uzellaridan biri hisoblanadi. Aynan Termizdan Afg'onistonning Mozori Sharif shahriga olib boradigan xalqaro temir yo'li qurilgan. Darhaqiqat, temir yo'l shaharning o'zidan 8 km g'arbda joylashgan Mozori Sharif xalqaro aeroportiga boradi.

Termiz shahrida shamol janubi - g'arbiy yo'nalishda, Afg'oniston tomondan esgani uchun mahalliy xalq uni „Afg'on shamoli“ deb ataydigan shamol mavjud bo'lib. Amudaryo havzasining yuqori qismida kuzatiladi. Afg'on shamoli bir tomondan, janubi - g'arbdan siljib keladigan va Hisor tog' tizmasi oralig'ida siqilib

harakatlanadigan iliq havo massasining, ikkinchi tomondan esa, shimoli - g'arbdan keladigan sovuq havo frontining aerodinamik tezlashuvi oqibatida paydo bo'ladi. Yiliga Termiz shahrida 30 - 70 kun esadi. Aynan, Termiz shahrida Afg'on shamoli o'ziga xos meteorologik hodisalar bilan kuzatiladi: 1 – 2 kun avval sharqdan esgan kuchsiz shamol natijasida dastlab siyrak chang paydo bo'lib, asta-sekin quyushib boradi [3, 2-b]. Havo harorati ko'tariladi, nisbiy namlik esa keskin kamayadi. Atmosfera bosimi pasayadi. Havo frontining yaqinlashuvi bilan girdob va quyunlar hosil bo'ladi, so'ngra to'satdan 20 m/sek va undan ortiq tezlikda esadigan to'zonli bo'ron – Afg'on shamoli vujudga keladi. Afg'on shamoli aksariyat garmsel davrini yakunlaydi. Afg'on shamoli xalq xo'jaligiga, ayniqsa, qishloq xo'jaligiga katta zarar yetkazadi. Afg'on shamolining zararli ta'siri ekinzorlarni sug'orish bilan kamaytiriladi. Ekinzorlarni ihota daraxtlari bilan himoya qilish ham Termiz shahrida Afg'on shamoli ta'sirini ancha kesadi.

Termiz qadimda qulay daryo kechuvda joylashganligi tufayli savdo va iqtisodiy – ijtimoiy, madaniy ma'rifiy aloqalar markazi bo'lgan bo'lsa endilikda Surxondaryo viloyatining ma'muriy, madaniy markazi qolaversa O'zbekistonning janubiy darvozasi sifatida o'ziga hos o'ringa ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Soliyev O'zbekiston geografiyasi. – Toshkent.: Unversitet, 2014. – 284 b.
2. У. Богодорова Краеведение Сурхондаръй. – Тошкент.: Узбекистан, 1989. 2 б;
3. Rakhmatov Abdukholiq Farkhodovich "Development of Fishing Farms in River and River Areas of Surkhandarya Region Middle European Scientific Bulletin" <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/822>
4. Stat.uz
5. Газета.uz "Термез награжден орденом «Амир Темура»" выпуск 22 августа 2014 года
6. Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 27-dekabrdagi 545-son Qarori
7. Erkin Ahmedov O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. Toshkent.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti, 2002. - 95 b.
8. Холли Курбонов, Исмоил Ботиров. Термиз. ЎзМЭ. Т-харфи. Биринчи жилд. – Тошкент.: 2000. 313 б.